



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buyuk
davlat

2026-YIL – MAHALLANI RIVOJLANTIRISH VA JAMIYATNI YUKSALTIRISH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2026-yil 16-iyul, № 144 (9315)

Payshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.



BELARUS BILAN HUDUDLARARO HAMKORLIK KENGAYTIRILADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev Belarusga tashrif davomida hududlararo hamkorlikni kengaytirish bo'yicha erishilgan kelishuvlar ijrosiga doir taqdimot bilan tanishdi.

Qayd etilganidek, davlatimiz rahbarining 8-9-iyul kunlari ushbu mamlakatga amalga oshirilgan rasmiy tashrifi chog'ida o'zaro savdo hajmini 2 milliard dollarga yetkazish, mashinasozlik, qishloq xo'jaligi, farmatsevtika, to'qimachilik, yog'ochni qayta ishlash va tibbiyot sohalarida umumiy qiymati 2 milliard dollarlik 310 ta loyiha va chora-tadbirni ro'yobga chiqarish bo'yicha muhim kelishuvlarga erishildi.

Davlatimiz rahbari ularni qisqa muddatda amaliy natijaga aylantirish, yangi korxonalar va ish o'rinlarini tashkil etish, tadbirkorlar uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish muhimligini ta'kidladi.

Belarusda investitsiya loyihalarini joylashtirish uchun taklif etilayotgan sanoat obyektlari, davlat mulki va keng qishloq xo'jaligi yerlari mavjud. Mamlakat hududining 40 foizini yoki 8 million gektarini qishloq xo'jaligi maydonlari tashkil etadi.

Bu imkoniyatlar qo'shma ishlab chiqarishlarni yo'lga qo'yish, agrar kooperatsiyani rivojlantirish, tadbirkorlik aloqalarini kengaytirish hamda fuqarolarni tashkiliy asosda ish bilan ta'minlash uchun mustahkam zamin yaratadi.

Bunda Belarusda ishlash yoki biznes yuritish istagidagi fuqarolar va tadbirkorlar ro'yxatini shakllantirib, Belarus tomoni bilan

oldindan kelishib, ish joyi, yashash sharoiti, loyiha uchun zarur bino va yer masalalarini hal etgan holda ularning borishini tashkil qilish zarurligi ko'rsatib o'tildi.

Taqdimotda Andijon va Vitebsk viloyatlari o'rtasidagi hamkorlik doirasida bajarilgan ishlar haqida axborot berildi.

Ikki hudud o'rtasida "Yo'l xaritasi" tasdiqlanib, aniq tashabbuslarni ro'yobga chiqarish boshlangan. Jumladan, 255 nafar Andijon viloyati fuqarosining tashkiliy asosda Vitebskka borishi va bandligi ta'minlandi.

Shuningdek, 11 ta chorvachilik majmuasi negizida yangi loyihalarni yo'lga qo'yish bo'yicha kelishuvga erishildi. Ularning har biri 200 boshdan 3 ming boshgacha qoramol parvarishlash imkoniyatiga hamda yetarli ozuqa maydonlariga ega.

"Andijon invest" kompaniyasi ishtirokida yirik chorvachilik kompleksi va sanatoriy majmuasi negizida investitsiya hamda ijtimoiy tashabbuslarni boshlash choralarini ko'rilmogda.

Umuman, Vitebsk va Belarusning boshqa viloyatlarida chorvachilik, yog'ochni qayta ishlash, logistika, savdo va xizmat ko'rsatish yo'nalishlarida umumiy qiymati 100 million dollardan ziyod bo'lgan 30 ta yangi loyiha paketi shakllantirildi.

(Davomi 2-betda).



YANGI AVLOD RAHBAR KADRLARI ZAMONAVIY TIZIM ASOSIDA SARALANADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev iqtidorli boshqaruvchilar, liderlar va yangi avlod rahbarlarini aniqlash va tanlash hamda "El-yurt umidi" jamg'armasi orqali iste'dodli yoshlarni qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari yuzasidan taqdimot bilan tanishdi.

Bugungi kunda O'zbekiston intellektual salohiyat va yuqori texnologiyalarga asoslangan yangi rivojlanish bosqichiga o'tmogda. Mamlakatimizga har yili 50 milliard dollardan ziyod investitsiya kirib kelmogda, eksport hajmi 40 milliard dollarga yaqinlashmogda, zamonaviy korxonalar ishga tushirilmogda.

Bunday sharoitda professional davlat xizmati va raqobatbardosh iqtisodiyot uchun zarur kadrlarni oldindan tayyorlash strategik ahamiyat kasb etadi.

So'nggi yillarda davlat boshqaruvida kadrlarni tanlash va baholash tizimi izchil raqamlashtirildi. Ilk bor 87,7 ming nafar davlat xizmatchisining yagona elektron ma'lumotlar bazasi shakllantirildi. Davlat xizmatiga qabul qilish ochiq tanlov asosida, nomzodlarning bilim va ko'nikmalarini inson omilisiz baholash orqali amalga oshirilmogda.

Taqdimotda sun'iy intellekt yordamida tarmoqlar va hududlarning drayver sohalari tahlil qilinib, 50 dan ortiq zamonaviy kasblar bo'yicha boshqaruv kadrlariga ehtiyoj mavjudligi aniqlangan qayd etildi. Ayniqsa, energetika va "yashil" texnologiyalar, qurilish va urbanizatsiya, qishloq va suv xo'jaligi, raqamlashtirish hamda xizmat ko'rsatish

yo'nalishlarida malakali mutaxassislarga talab yuqori.

Davlatimiz rahbari tayyor kadrlar bazasi bo'lmasa, boshqaruv tizimida uzilishlar yuz berishi, ish samaradorligi va qarorlar sifati pasayishini ta'kidladi.

Kadrlarni baholashda eskicha "obyektivka" usulidan voz kechib, nomzodning bilimi, kasbiy tajribasi, psixologik xususiyatlari, strategik fikrlashi va liderlik qobiliyatini qamrab oladigan portfolio tizimiga o'tish zarurligi ko'rsatib o'tildi.

Yangi tartibga ko'ra, istiqbolli boshqaruvchilar raqamli texnologiyalar asosida 100 ballik mezon bo'yicha baholanadi. Katta ma'lumotlar va biznes-tahlil vositalari orqali yuqori salohiyatli kadrlar aniqlanib, ular uchun sun'iy intellekt yordamida individual kasbiy rivojlanish rejalari ishlab chiqiladi. Mazkur tizimni dastlab qishloq xo'jaligi, oliy ta'lim va qurilish sohalarida sinovdan o'tkazish taklif etildi.

Har ikki yilda 500 nafar istiqbolli boshqaruvchini saralab olish, shu tariqa 2030-yilga qadar 1,5 ming nafar yuqori salohiyatli mutaxassisdan iborat yangi avlod rahbar kadrlar zaxirasini yaratish rejalashtirilgan.

(Davomi 2-betda).



Biz va jahon

ANDIJON VA VITEBSK QO'SHMA LOYIHALARI AMALGA OSHIRILMOQDA

Oliy darajadagi O'zbekiston – Belarus kelishuvlariga muvofiq, Andijon viloyatining dastlabki 255 nafar fuqarosi Belarusga yetib bordi.

Belarus Prezidenti Aleksandr Lukashenko va Andijon viloyati hokimi Shuhrat Abdurahmonov Vitebsk viloyatida bo'lib, qo'shma loyihalarni amalga oshirish masalalarini muhokama qildi.

Hamkorlik rejalari O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 8-9-iyul kunlari Belarusga qilgan rasmiy tashrifi chog'ida ikki mamlakat o'rtasida erishilgan kelishuvlar doirasida rivojlantirilmogda. Ular turli sohalarga sarmoya kiritish va O'zbekiston fuqarolarini Belarusga

ishlashga jalb qilishni nazarda tutadi.

"Men O'zbekiston Prezidentiga buni amalga oshirishga va'da berdim. Bu biz uchun manfaatli. Shu tariqa Vitebsk viloyati rivojlanadi", dedi Prezident Aleksandr Lukashenko.

Uning so'zlariga ko'ra, viloyatda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlashni rivojlantirishga va zarurat tug'ilsa, qayta ishlash korxonasini birgalikda qurishga tayyor. "Biz birodarlarcha ishlaymiz! Bunga shubha qilmasangiz ham bo'ladi", deya ta'kidladi Belarus yetakchisi.



IJTIMOY HIMOYANING MUHIM SHARTI

Jahon iqtisodiyoti va global kapital xaritasi keskin o'zgarayotgan, globallashuv va xavf-xatarlar kuchayib borayotgan bir sharoitda sug'urta bozori xavflarni qaysimlash mexanizmi sifatida iqtisodiy subyektlar faoliyatini kafolatlash, kapitalni samarali yo'naltirish, aholi farovonligi va davlat moliyaviy barqarorligini ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Zero, sug'urta – aholi ijtimoiy himoyasining muhim sharti bo'lib, iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish va uning barqarorligiga erishishda katta ahamiyat kasb etadi.

Mulohaza

Mamlakatimizda sug'urta xizmatlarining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi rivojlangan davlatlardagi ko'rsatkichga nisbatan kamroq. Buyuk Britaniya, Fransiya, Niderlandiya kabi mamlakatlarda bu ko'rsatkich ancha yuqori, hatto 10 foizdan ham oshadi. Masalan, AQSHda 3 mingga yaqin sug'urta turlari bo'yicha xizmat ko'rsatiladi. Yurtimizda esa bu ko'rsatkich o'rtacha 150 tani tashkil etadi.

O'zbekiston sug'urta bozorida 36 ta sug'urta tashkiloti ikkita yo'nalishda (shulardan, 27 tasi umumiy sug'urta va 7 tasi hayotni sug'urta qilish va bittasi faqat

qayta sug'urta sohasida) faoliyat yuritmogda.

Istiqbolli loyihalar milliy agentligi ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistondagi umumiy sug'urta mukofotlari 2025-yilda 13,46 trln. so'mga yetdi, bu 2024-yildagiga nisbatan 37,8 foiz o'sganini anglatadi.

Joriy yil 1 chorak yakuni bo'yicha sug'urta tashkilotlari tomonidan yig'ilgan sug'urta mukofotlari 4,0 trln. so'mga yetib, o'tgan yilning mos davridagiga nisbatan 52,7 foiz o'sish ta'minlangan.

Mamlakatimizda sug'urta xizmatlari iste'molchilarining huquqlarini himoya qilish bo'yicha qonunchilikni takomillashtirish borasida ham qator ishlar amalga oshirilmogda.



Yig'ilish

KUN TARTIBIDA – KORRUPSIYA VA JINOYATCHILIKKA QARSHI KURASHISH MASALALARI

Oliy Majlis Senatining Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo'mitasi hamda xalq deputatlari Yangiheyot tumani Kengashining qo'shma majlisida huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish, korruptsiya va jinoyatchilikka qarshi kurashish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar natijalari muhokama qilindi.



Yig'ilishda Senatning Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo'mitasi raisi Q. Burhonov, Fan, ta'lim va sog'liqni saqlash masalalari qo'mitasi a'zosi G. Ma'rufova va shuningdek, Soliq qo'mitasi rahbariyati, xalq deputatlari Yangiheyot tumani Kengashi deputatlari, mahalliy ijro hokimiyati, huquqni muhofaza qiluvchi organlar hamda mutasaddi idoralar vakillari ishtirok etdi.

Majlisda tuman hokimi, prokuror hamda ichki ishlar organlari rahbarlarining hisobotlari eshitilib, mavjud holat yuzasidan deputatlar tomonidan qator masalalar o'rtaga tashlandi.

Jumladan, tumanda ko'rilgan chora-tadbirlar natijasida 2026-yilning birinchi yarmida muqaddam sudlangan shaxslar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar 50 foizga, yoshlar jinoyati – 38, ayollar jinoyati – 25 hamda

mast holatda qo'urilgan jinoyatlar 14,2 foizga qisqargan. Ayni chog'da ichki ishlar organlari tashabbusi bilan aniqlangan jinoyatlar soni 19 foizga ko'paygani profilaktika ishlari samaradorligi ortib borayotganidan dalolat beradi.

Muhokama chog'ida ayrim yo'nalishlarda olib borilayotgan ishlarni yanada kuchaytirish zarurligi qayd etildi. Jumladan, profilaktik tadbirlar ijrosi ustidan ta'sirchan nazoratni ta'minlash, ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi bilan manzilli ishlash, belgilangan vazifalarning axborot platformalarida to'liq aks ettirilishiga erishish, mas'ul tashkilotlar o'rtasidagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha tegishli vazifalar belgilandi.

Bildirilgan taklif va mulohazalar asosida qo'shma qaror qabul qilindi va belgilangan vazifalarni amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar rejasi tasdiqlandi.

"Xalq so'zi".

Oliy Majlis Qonunchilik palatasida

QURILISH MAHSULOTLARI SIFAT NAZORATI KUCHAYTIRILADI

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Tadbirkorlik, raqobatni rivojlantirish va sanoat masalalari qo'mitasining kengaytirilgan yig'ilishi bo'lib o'tdi. Unda Qonunchilik palatasi rahbariyati, Kengashi a'zolari, deputatlar, shuningdek, O'zbekiston Texnik jihatdan tartibga solish agentligi mas'ul xodimlari va mutaxassislari ishtirok etdi.



Yig'ilishda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Bekobod shahriga tashrifi doirasida O'zbekiston metallurgiya kombinatida qora metallurgiya sanoatini yangi bosqichga olib chiqish bo'yicha o'tkazilgan yig'ilishda belgilangan vazifalardan kelib chiqib sohaning huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish, xususan, qurilish mahsulotlari muomalasini tartibga solish, mazkur sohada uchrayotgan huquqbuzarliklar uchun javobgarlikni kuchaytirish va huquqiy choralarning mutanosibligini ta'minlash masalalari atroflicha muhokama qilindi.

Ta'kidlandiki, bugungi kunda qurilish sohasida uning sifati ustidan nazoratni amalga oshirishning huquqiy tizimi yaratilgan. Oliy Majlis Qonunchilik palatasi tomonidan "Bozor nazorati to'g'risida"gi qonun loyihasi qabul qilinib, Senatga yuborilgan.

Ushbu hujjat mahsulot xavfsizligini ta'minlashga oid qonunchilik hujjatlari va texnik reglamentlar bilan belgilangan talablarga nomuvofiq sifatsiz mahsulot ishlab chiqargan, import qilgan yoki tarqatgan shaxslarga nisbatan aniq ta'sir choralari belgilash hamda

iste'molchilarning huquq va manfaatlarini yanada samarali himoya qilishga qaratilgan.

Shuningdek, "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga texnik jihatdan tartibga solish tizimini yanada takomillashtirishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi, "Mahsulotlarning umumiy xavfsizligi to'g'risida"gi qonun loyihalari Qonunchilik palatasida qabul qilinib, Senatga yuborilgan. Ayni paytda mazkur qonunlar Oliy Majlis Senati tomonidan ko'rib chiqilmogda.

Qo'mita a'zolari Prezidentimiz tomonidan belgilab berilgan vazifalardan kelib chiqib Texnik jihatdan tartibga solish agentligi bilan birgalikda qurilish mahsulotlari muomalasini tartibga solish, xususan, texnik reglamentlarning majburiy talablariga rioya etmaslik uchun javobgarlikni yanada kuchaytirish bo'yicha hamkorlikda takliflar ishlab chiqishga kelishib oldi.

"Xalq so'zi".

KELAJAK SARI MAS'ULIYATLI QADAM



Yurtimizda minglab yoshlarning orzu-intilishlari, bilim va salohiyati sinovdan o'tayotgan muhim palla – 2026/2027-o'quv yili uchun oliy ta'lim tashkilotlarining bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga test sinovlari boshlandi. 14-iyuldan start olgan imtihonlar respublika bo'yab maxsus tayyorlangan hududlarda ikki smenada tashkil qilinmogda va 23-iyulga qadar davom etadi.

"Abituriyent – 2026"

Bugun mamlakatimizda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar, yoshlarning bilim olishi uchun yaratilayotgan imkoniyatlar natijasida oliy

ta'limga intilayotganlar soni yil sayin ortib bormogda. Bu yil ham qabul jarayoniga qiziqish yuqori bo'lib, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi ma'lumotiga ko'ra, bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga o'qish uchun 677 ming 907 nafar abituriyent onlayn ro'yxatdan o'tgan.

Ularning 451 ming 744 nafari yoki 66,6 foizi joriy yilgi maktab bitiruvchilari bo'lsa, 226 ming 163 nafari avvalgi yillarda ta'lim muassasalarini tamomlagan yoshlar va fuqarolardir. Bu raqamlar yurtimizda oliy ma'lumot olishga intilish tobora kuchayib borayotganini yana bir bor tasdiqlaydi.

E'tiborga molik yana bir jihat – abituriyentlarning 365 ming 196 nafari, ya'ni 53,9 foizi xotin-qizlar. Bu mamlakatimizda xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, ularning ta'lim

olishi va o'z salohiyatini ro'yobga chiqarishi uchun yaratilayotgan keng imkoniyatlar o'z samarasini berayotganidan dalolat.

Qabul jarayonlarining ochiqligi va shaffofligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmogda. Shu maqsadda test sinovlari "test2026.uz" platformasi orqali jonli efrida namoyish etilmogda. Abituriyentlar esa imtihon o'tkaziladigan sana, vaqt va manzil haqidagi ma'lumotlarni "my.uzbmb.uz" portalidagi shaxsiy kabinetlari orqali bilib olishlari mumkin.



Vatanimiz mustaqilligining 35 yilligiga



So'nggi o'n yil O'zbekiston uchun chinakam tarixiy buriilish davri bo'ldi. Bu yillar mamlakatimiz taraqqiyotida islohotlar so'zda emas amalda, hayotning o'zida namoyon bo'lgani bilan ahamiyatlidir.

YUTUQ VA MUVAFFAQIYATLARIMIZ KAFOLATI

Islohotlarning xalq hayotiga chuqur kirib borgan eng katta yutuqimiz bo'ldi. Bugun har bir hududda, har bir mahallada, har bir xonadonda davlat siyosati natijalarini ko'rishimiz mumkin. Yangi ish o'rinlari, zamonaviy ishlab chiqarish korxonalari, xizmat ko'rsatish sohasining kengayishi, ta'lim va tibbiyot infratuzilmasining yaxshilanishi – bularning barchasi davlat siyosatining xalq manfaatiga xizmat qilayotganini tasdiqlaydi.

Ta'kidlash joizki, mamlakatimizning milliy suvereniteti va davlat mustaqilligi g'oyalarning siyosiy-huquqiy kafolatlarini o'zida mujassam etgan yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz asosidagi taraqqiyot yo'limiz inson qadr-qimmatini yuksaltirish, ko'p millatli jamiyatimizda do'stlik hamda hamjihatlik muhitini mustahkamlash, milliy urf-odat va an'analarni asrab-avaylash, yurtimizda tinchlik hamda barqarorlikni ta'minlash kabi muhim masalalarda mustahkam tayanch bo'lib kelmoqda.

Shu o'rinda mustaqillik yillarida parlament faoliyatining konstitutsiyaviy rivojlanish tendensiyalariga alohida e'tibor qaratish joiz. Zero, demokratiyaning sifati qonun chiqaruvchi hokimiyatning mustaqilligi, ta'sirchan nazorat vakolatlari hamda deputatlarning haqiqiy vakillik missiyasini to'liq bajarishga bevosita bog'liq. Jumladan, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda parlament palatalari, ya'ni Qonunchilik palatasi va Senatning birgalikdagi hamda alohida-alohida vakolatlari va mas'uliyat sohalari aniq belgilandi.

Ayrimlari xususida to'xtalib o'tadigan bo'lsak, Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilingan qonunlar Senat tomonidan oltmish kun ichida ko'rib chiqilishi belgilab qo'yildi. Agar Senat qonunni ma'qullash yoki rad etish to'g'risida oltmish kun ichida qaror qabul qilmasa, Qonunchilik palatasi tomonidan ushbu hujjat imzolanishi va e'lon qilinishi uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga



yuborilishi nazarda tutildi.

Shuningdek, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning 92-moddasiga asosan Senat a'zolari har bir ma'muriy-hududiy birlikdan 4 nafardan saylanishi, 9 nafari esa Prezident tomonidan tayinlanishi (jami 65 nafar) belgilandi. Doimiy asosda ishlovchi senatorlar soni esa amaldagidek 25 nafar miqdorda saqlab qolindi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning 104-moddasiga asosan Qonunchilik palatasi deputatining va doimiy ishlaydigan senatorning o'z vakolatlari davrida ilmiy va pedagogik faoliyat bilan bir qatorda ijodiy faoliyat bilan ham shug'ullanishi mumkinligi huquqi mustahkamlab qo'yildi.

Muhim qadamlardan yana biri – yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning 98-moddasiga asosan parlament quyi palatasiga qonunchilik takliflarini qonunchilik tashabbusi tartibida kiritish huquqi saylov huquqiga ega bo'lgan, 100 ming nafardan kam bo'lmagan fuqarolarga, Senatga, Ombudsmanga va Markaziy saylov komissiyasiga berilishidir.

Bu hali hammasi emas. Qonunchilik taklifida muayyan qonunni qabul qilish, o'zgartirish kiritish, bekor qilish zarurati asoslantirilishi hamda uning g'oyasi va kutilayotgan natijalar haqida ma'lumot bo'lishi kerakligi belgilab qo'yildi. Shuningdek, fuqarolar tomonidan kiritiladigan qonunchilik taklifining mexanizmi va uning predmeti bo'lishi mumkin bo'lmagan masalalar aniqlashtirildi. Jumladan, hududiy quvvatlari mamlakat sanoat tarixidagi eng yirik investitsiyaviy loyihalar qatoriga kiradi. Ushbu korxonalarning ishga tushirilishi import hajmini keskin kamaytirish barobarida yuqori texnologik mahsulotlar eksportini ko'paytirish imkonini berdi.

Bundan tashqari, so'nggi yillarda parlamentning davlat siyosatidagi ta'sirini

kuchaytirishga xizmat qiladigan aniq mexanizmlar yaratildi. Xususan, davlat kafolati ostida jalb etiladigan tashqi mablag'larni parlament tasdig'idan o'tkazish amaliyotini joriy qilish byudjet intizomi va moliyaviy mas'uliyat nuqtayi nazaridan muhim qadamdir. Bu yondashuv davlat qarzi masalasini faqat ijro hokimiyati doirasida yechish emas, balki jamoatchilik manfaatlarini ifoda etuvchi vakillik organi muhokamasi orqali qarorga aylantirishga xizmat qiladi.

Yana bir jihat – deputat so'rovlari bo'yicha har chorakda tahliliy ma'lumot tayyorlash va uni prokuratura organlariga kiritish amaliyotining yo'lga qo'yilishi deputatlik so'rovini oddiy xat-xabar darajasidan samarali huquqiy vosita maqomiga ko'tardi. Asosiy maqsad – deputat murojaatiga berilgan javob qog'ozda qolib ketmasligi, agar unda qonun buzilishi, mas'uliyatsizlik yoki adolatsiz qaror belgilari mavjud bo'lsa, tegishli huquqiy baho berilgan holda chora ko'rilishini ta'minlashdir.

Davlatimiz rahbarining alohida qarori bilan Qonunchilik palatasi deputatlariga xalq vakillari hamda saylovchilar o'rtasida hamkorlikni kuchaytirish maqsadida "Tashabbusli byudjet" jarayonlari doirasida g'olib bo'lmagan loyihani deputat tashabbusiga ko'ra g'olib, deb e'lon qilish vakolati berildi. Bu amaliyot deputatlarning joylardagi ijtimoiy muammolarni hal etishdagi ta'sirini oshirishi barobarida "deputat – xalq ovozi" tamoyilining amalda yanada kuchayishiga sabab bo'lmoqda.

Mustaqillik yillarida, jumladan, so'nggi o'n yilda parlament vakolatlarining kengayishi Yangi O'zbekiston taraqqiyotining mustahkam tayanchi hamda kelajakdagi muvaffaqiyatlari kafolatidir. Zero, "Yagona Vatan, yagona xalq bo'lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!"

Zafar XUDOYBERDIYEV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.

METALLURGIYA SOHASI TARAQQIYOTIDA YUKSALISH DAVRI

Bugungi kunda mamlakatimizda jadal sur'atlarda amalga oshirilayotgan qurilish-bunyodkorlik va sanoatlashtirish jarayonlari metall mahsulotlariga talabni tobora oshirmoqda. Hisob-kitoblarga ko'ra, 2030-yilga borib metall mahsulotlariga yillik ehtiyoj 1,5 barabarga ko'payib, 8 million tonnadan ortishi kutilyapti. Bu raqamlar nafaqat qurilish va mashinasozlik tarmoqlarining o'sishini, balki iqtisodiyotimizning yangi texnologik bosqichga ko'tarilayotganini yaqqol namoyon etadi.

Shu ma'noda, Prezidentimizning Bekobod shahriga tashrif buyurib, O'zbekiston metallurgiya kombinatida amalga oshirilayotgan ishlar va istiqbolli loyihalar bilan tanishishi, qolaversa, qora metallurgiya sanoatini yangi bosqichga olib chiqishga bag'ishlangan yig'ilishda belgilab berilgan vazifalar mamlakat iqtisodiyotining uzoq muddatli strategik taraqqiyoti uchun muhim ahamiyatga ega. Yig'ilishda iqtisodiyotni texnologik va innovatsion o'sish modeliga o'tkazish, importga qaramlikni kamaytirish, raqamlashtirish hamda sun'iy intellekti keng joriy etish kabi ustuvor yo'nalishlar belgilab berildi.

Qayd etilganidek, bugungi kunda mamlakatimizda metallurgiya sohasida 150 ga yaqin o'rta va kichik xususiy korxonalar faoliyat yuritmoqda. Bu esa tarmoqda sog'lom raqobat muhiti shakllanib, xususiy sektorning faol ishtiroki ta'minlanayotganini ko'rsatadi. Eng muhimi, ushbu korxonalar atrofida kooperatsiya zanjirlarini kengaytirish orqali yangi ishlab chiqarish quvvatlari va minglab yangi ish o'rinlarini yaratish imkoniyati paydo bo'lyapti.

Aytilish joizki, yig'ilishda Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti mamlakat metallurgiya tarmog'ini rivojlantirish bo'yicha "aql markazi" tizimiga asosiy ilmiy-tahliliy dargohlardan biri sifatida kirishi ta'kidlandi. Olimlarimiz zimmasiga yangi turdagi metall materiallariga bo'lgan talabni tahlil qilish, qaysi hududda qanday



metallurgiya loyihalarini amalga oshirish maqsadiga muvofiqligini aniqlash, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish bo'yicha ilmiy yechimlar ishlab chiqish hamda tarmoq uchun raqobatbardosh kadrlar tayyorlash yo'nalishlarini belgilash kabi vazifalar yuklatildi.

Xo'sh, mazkur topshiriqlar ijrosi nima beradi?

Avvalo, yangi konlarni o'zlashtirish va metallurgiya quvvatlarini ishga tushirish minglab yangi ish o'rinlarini yaratadi.

Ikkinchidan, qo'shimcha qiymat zanjiri kengayib, xomashyodan tayyor mahsulotgacha bo'lgan to'liq texnologik sikl shakllanadi.

Uchinchidan, eksportbop mahsulotlar hajmi ortib, viloyat iqtisodiy salohiyati yanada mustahkamlanadi. Bu, albatta, biz uchun katta ishonch va mas'uliyatdir. Eng muhimi, endilikda ilmiy tadqiqotlar amaliyot bilan uyg'unlashadi. Universitet olimlari va talabalar ishlab chiqarish korxonalari bilan hamkorlikda real muammolarga yechim ishlab chiqadi. Bu esa innovatsion g'oyalarning tezkor joriy etilishiga xizmat qiladi.

Ayniqsa, O'zbekiston metallurgiya kombinati hududida 90 gektar maydonda zamonaviy infratuzilmaga ega "O'zbekiston ekologik texnologiyalar sanoat parki" tashkil etilishi sohaning kelajigini belgilaydigan muhim loyihalardan biri hisoblanadi. Bu yerda yuqori texnologiyali mahsulotlar ishlab chiqarish, ilmiy tadqiqotlar natijalarini amaliyotga tatbiq etish va ekologik xavfsiz ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish uchun keng imkoniyatlar yaratiladi.

Bundan tashqari, majlisda metallurgiya

tarmog'ida sun'iy intellektidan foydalanish orqali katta iqtisodiy samaraga erishish mumkinligi alohida qayd etildi. Shu o'rinda Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universitetida kelgusi o'quv yilidan boshlab konchilik, elektr-energetika, kimyo-metallurgiya kabi ilg'or muhandislik sohalari qatorida dasturiy injiniring, sun'iy intellekt yo'nalishlarida mutaxassislar tayyorlash ko'lami kengaytirilayotganini ta'kidlab o'tish joiz.

Yana bir masala, endilikda dual ta'lim tizimi asosida kadrlar tayyorlash ishlari yangi bosqichga olib chiqiladi. Albatta, bugungi kunda faqat muhandis emas, balki raqamli texnologiyalar, ma'lumotlar tahlili va sun'iy intellekti chuqur biladigan yangi avlod mutaxassislari sanoatimiz uchun o'ta zarur. Oliy ta'lim muassasalari va ishlab chiqarish korxonalari o'rtasidagi bunday hamkorlik ta'lim mazmunini ishlab chiqarish ehtiyojlari bilan uyg'unlashtirish, ilmiy ishlarni amaliyotga joriy etish va korxonalar uchun zarur bo'lgan malakali muhandislarni tayyorlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotini 2030-yilga qadar 240 milliard dollarga yetkazish maqsadi qo'yilgan ekan, bunda metallurgiya tarmog'ini hal qiluvchi o'rin tutadi. Shu nuqtayi nazardan, belgilangan barcha loyiha hamda berilgan topshiriqlarning samarali ijrosiga Navoiy viloyatidagi ilmiy salohiyatni to'liq safarbar etish strategik vazifamizga aylanadi.

Baxtiyor MARDONOV,
Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti rektori,
xalq deputatlari Navoiy viloyati Kengashi deputati.



Mamlakatimizda so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan ochiqlik siyosati, ayniqsa, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va sanoatlashtirishni chuqurlashtirishga qaratilgan islohotlar iqtisodiyot tarmoqlarida mutlaqo yangi, ta'bir joiz bo'lsa, kreativ muhitni shakllantirdi. Buni iqtisodiyotimizning tayanch tarmoqlaridan biri bo'lgan kimyo sanoati tubdan yangilanayotgani misolida yaqqol ko'rish mumkin.

Gap shundaki, bundan o'n yil avval tarmoq bir yo'nalish, asosan, mineral o'g'itlar ishlab chiqarishga bog'lanib qolgan bo'lsa, bugungi kunda u mamlakat sanoat siyosati, eksport strategiyasi va yuqori qo'shilgan qiymat yaratishning muhim ustunlaridan biriga aylandi. Davlatimiz rahbari tomonidan sanoatlashgan, texnologik va raqobatbardosh iqtisodiyotni shakllantirish bo'yicha belgilab berilgan ustuvor vazifalarning izchil ijrosi tarmoq transformatsiyasining bosh mezon bo'lib xizmat qildi, albatta.

Tarmoq qiyofasi o'zgardi

Oxirgi olti-yetti yil davomida kimyo sanoatida amalga oshirilgan islohotlar o'zining aniq iqtisodiy samaralarini berdi. Ushbu davrda ishlab chiqarish hajmi "O'zbekimyo sanoat" aksiyadorlik jamiyatida 24,3 trln. so'mga yetgani, eksport hajmi 197 mln. dollardan 720 mln. dollargacha ko'paygani so'zimiz tasdiqlaydi. Yana bir muhim o'zgarishlardan biri – bu investitsiyalar hajmi ikki barobardan ziyod o'sib, 658,5 mln. dollarni tashkil etganidir. Bularning barchasi kimyo sanoati sifat jihatdan mutlaqo yangi bosqichga ko'tarilganidan yorqin dalolat.

Darhaqiqat, ilgari xorijdan import qilingan 60 dan ziyod turdagi mahsulotlarni o'tgan qisqa davr ichida yurtimizda ishlab chiqarish o'zlashtirildi. Natijada tizim korxonalarida tayyorlanayotgan mahsulotlar turi 200 ga yetkazildi. Bular kichik raqamlar emas, ularning ortida minglab muhandislar, olimlar, mutaxassislar va ishchilarning fidokorona mehnati,

eng asosiysi, davlat tomonidan yuritilayotgan oqilonlana sanoat siyosati hamda yaratib berilgan qulay investitsiya muhiti mujassam.

Investitsiyalar – taraqqiyotning asosiy omili. Usiz hech bir sohada rivojlanish ham, yuksalish ham kuzatilmaydi. Shu ma'noda, investitsiyalarni iqtisodiyotni harakatlantiruvchi asosiy kuch – drayver, deyish mumkin. Masalaga ana shu jihatdan yondashadigan bo'lsak, kimyo sanoati iqtisodiyotning investitsiyaviy jozibador tarmoqlaridan biriga aylandi. Keyingi yillarda sohaga 8 mlrd. 300 mln. dollar investitsiya kiritilib, 87 ta yirik quvvat ishga tushirilgani shunday deyishimizga asos bo'la oladi, albatta.

Respublika kimyo sanoatining jami ishlab chiqarish hajmi 63 trln. so'mga yetdi. Bu ko'rsatkich kimyo, polimer va rezinatexnika mahsulotlari ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.

Pirovardida Yangi O'zbekiston kimyo sanoatidagi



ishlab chiqarish majmuasi, ammiak va karbamid majmuasi hamda azot kislotasi ishlab chiqarish quvvatlari mamlakat sanoat tarixidagi eng yirik investitsiyaviy loyihalar qatoriga kiradi. Ushbu korxonalarning ishga tushirilishi import hajmini keskin kamaytirish barobarida yuqori texnologik mahsulotlar eksportini ko'paytirish imkonini berdi.

Strategik vazifalar va ulkan marralar

Ochig'ini aytilish kerak, sohada qo'lga kiritilayotgan zalvarli yutuqlar bilan birga, hal etilishi lozim bo'lgan masalalar ham yo'q emas. Bu haqda yaqinda Prezidentimiz raisligida o'tkazilgan kimyo sanoatini jadal rivojlantirish va hududlardagi investitsiya loyihalarini amalga oshirish masalalariga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishida ro'yirost aytiladi.

Qayd etilganidek, so'nggi to'qqiz yilda respublika sanoatining o'rtaqacha 6,3 foizga o'sgan bir paytda kimyo sanoatida bu ko'rsatkichning 3 foizga ham yetmagani, shuningdek, kimyo mahsulotlari importining 4,5 mlrd. dollargacha oshgani tarmoq oldida turgan vazifalar naqadar dolzarb ekanini ko'rsatadi. Bu raqamlar mavjud muammoni emas, balki hali to'liq ishga solinmagan ulkan iqtisodiy va investitsiyaviy salohiyat borligini ham ifoda etadi. Tanqidiy tahlil asosida belgilab berilgan ustuvor vazifalar mamlakatimiz kimyo sanoatida yangi davr boshlanganini anglatadi.

Shundan kelib chiqib, bugun investitsiyaviy loyihalar ijrosini jadallashtirish, yangi quvvatlarni ishga tushirish hamda import o'rnini bosuvchi va eksportbop mahsulotlar hajmini oshirish ustida izlanib, bor imkoniyatlar ishga solinmoqda. Chunki kimyo sanoatining barqaror o'sishi tarmoq taraqqiyotiga ega emas, mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligi va sanoat salohiyatini mustahkamlashga ham xizmat qiladi. Ana shunday

katta mas'uliyat chuqur his etilgan holda, davlat va xususiy sektor hamkorligi asosida yangi sanoat ekotizimi shakllantirilmoqda. Bu esa raqobat muhitini kuchaytirish, yangi texnologiyalarni jalb qilish orqali ichki va tashqi bozorlarda xaridorgir mahsulotlar ishlab chiqarish imkoniyatlarini kengayitmoqda.

Bu haqda so'z yuritilganda, Prezidentimiz tashabbusi bilan tashkil etilgan kimyo-industrial texnoparklar tarmoqning yangi drayverlariga aylanganini alohida ta'kidlash joiz. "Chirchiq" va "Jizzax" kimyo-industrial texnoparklari, Navoiy, Farg'ona va Qoraqalpog'iston kimyo klasterlari doirasida amalga oshirilayotgan loyihalar mamlakatimizda yuqori qo'shilgan qiymat zanjirlarini shakllantiryapti.

Ushbu hududlarda mahalliy xomashyoni chuqur qayta ishlash orqali yangi avlod kimyo mahsulotlari ishlab chiqarilmoqda. Misol uchun, "Chirchiq" kimyo-industrial texnoparkidagi birgina "BCG Group OZ" korxonasi tomonidan 80 dan ortiq turdagi maishiy va avtomobil kimyo mahsulotlari yetkazib berilyapti. Mahsulotlarning sifati milliy va xalqaro hujjatlar, xususan, ISO 9001, "Halol" hamda MDH davlatlari sertifikatlari bilan tasdiqlangan bo'ls tashqi bozorda talab katta. 2026-yilda 260,8 mlrd. so'mlik mahsulot ishlab chiqarish rejalashtirilgan bo'lib, 3 mln. dollarlik mahsulot Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkmaniston, Tojikiston va Afg'oniston kabi qo'shni davlatlarga eksport qilinadi. Shubhasiz, bu Yurtboshimiz tomonidan ilgari surilgan "xomashyodan tayyor mahsulotgacha bo'lgan to'liq zanjirni yaratish" tamoyilining amaliy ifodasidir.

Kelajak texnologiyalari

"Yashil" iqtisodiyot tamoyillari butun dunyo sanoati taraqqiyotida asosiy mezoniga aylangani ayni haqiqat. O'zbekiston ham mazkur global jarayonlarning faol ishtirokchisi sifatida atrof-muhitga ta'sirni kamaytirishga qaratilgan barqaror rivojlanish yo'lidan bormoqda. Bu esa xalqaro hamjamiyat tomonidan yuqori baholanyapti. Chunki kimyo sanoati misolida aytganda ham "yashil" iqtisodiyot tamoyillariga asoslangan loyihalar soni tobora ortmoqda.

Chirchiq shahrida ishga tushirilgan "yashil" vodorod ishlab chiqarish loyihasi mamlakatimiz energetika va kimyo sanoati tarixida yangi

sahifa ochib berdi. Binobarin, O'zbekiston ushbu loyiha doirasida "yashil" vodorod ishlab chiqaruvchi davlatlar qatoriga qo'shildi. Yoki bo'lmasa, "Navoiyazot" da 300 megavattli fotoelektr stansiyasi o'rnatilganini olaylik. Bu qayta tiklanuvchi energiya manbalarini sanoatga keng joriy etish borasidagi muhim qadam bo'ldi. Bunday ko'plab loyihalar Yangi O'zbekistonning ekologik barqaror va raqobatbardosh iqtisodiyot qurish yo'lidagi qat'iy siyosatini yorqin namoyon etmoqda.

Mamlakatimiz rahbari tomonidan 2030-yilga qadar kimyo sanoatini yanada yuqori bosqichga olib chiqish yuzasidan belgilangan maqsadli vazifalar ijrosida ham "yashil" iqtisodiyot tamoyillari ustuvor ahamiyat kasb etadi. Ushbu davrda mahsulot ishlab chiqarishni 74,2 trln. so'mga, eksport hajmini 3,8 mlrd. dollarga yetkazish ko'zda tutilmoqda.

Shu bilan birga, tarmoq tarkibi tubdan diversifikatsiya qilinib, asosiy e'tibor yuqori qo'shilgan qiymatli kimyo va polimer mahsulotlar ishlab chiqarishga qaratiladi. Bu bejiz emas, albatta. Negaki, hozirgi paytda jahon iqtisodiyotida polimer mahsulotlariga talab keskin oshmoqda. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, 2026 – 2030-yillarda bajarilishi rejalashtirilgan 17 mlrd. dollarlik 350 tadan ziyod loyihalar mamlakatimiz iqtisodiyotida yangi industrial inqilobga mustahkam poydevor bo'la'di, deb bemalol ayta olamiz.

Korinib turibdiki, o'tgan vaqtda kimyo sanoatida kelgusi o'n yillik uchun belgilangan strategik maqsadlar, ulkan rejalarga erishish uchun mustahkam asos yaratildi. Oldimizda turgan vazifalar esa yanada ulkan. Zero, biz Yangi O'zbekiston taraqqiyotining muhim bosqichida turibmiz. Bu jarayonda kimyo sanoati mamlakat iqtisodiyotining tayanch tarmog'i sifatida innovatsion va industrial rivojlanishning chinakam timsoliga aylanishi zarur. Davlatimiz rahbarining sohaga yuksak e'tibori, yaratib berilayotgan qulay shart-sharoit, mavjud salohiyat, zamonaviy texnologiyalar, investitsiyalar va inson kapitali bizga ana shunday yuksak marrani zabt etish imkonini beradi, albatta.

Odil TEMIROV,
"O'zbekimyo sanoat" aksiyadorlik jamiyati boshqaruvi raisi.

15-iyuldan "Tashabbusli byudjet" jarayonining 2026-yilgi ikkinchi mavsumi – loyiha kiritish bosqichi boshlandi. Tashabbuskor fuqarolar 3-avgustgacha o'z loyihalarini "Openbudget.uz" portalida ilgari surishlari mumkin.

DUNYONI HAYRATLANTIRGAN RISHTON KULLOLLARI

**Hunarmandchilik**

Bu sohaga e'tibor va rag'bat tufayli keyingi yillarda Rishtonda uchta yirik kulolchilik markazi foydalanishga topshirildi. Xususan, 2021-yili Xalqaro kulolchilik markazi bunyod etildi. Jahon andozalari bo'yicha tiklangan ikki qavatli majmuada rishtonlik eng mohir 20 nafar usta-kulol ijod qilmoqda. Asrlar mobaynida ushbu hunar avloddan-avlodga o'tib kelayotgan Qalaynav va Oq yer mahallalarida ham kulollar markazlari tashkil etilgan. O'n nafarga yaqin mashhur kulollar o'z xonadonida uy-muzey faoliyatini yo'lga qo'yg'an.

Keyingi yillarda xalqaro hamkorlik doirasida Ismoil (Ozarbayjon), Deruta (Italiya), Kutaxiya (Turkiya), Xo'jand (Tojikiston), Turkiston (Qozog'iston) kabi kulolchilik yaxshi rivojlangan shaharlar bilan faol hamkorlik qilib kelinmoqda. Rishtonda qariyb 600 nafar kulol Respublika "Hunarmand" uyushmasi a'zosi sifatida ro'yxatdan o'tgan. Ularning shogirdlari 3,5 ming nafardan ziyod.

Rishton kulolchiligi ko'rgazmasi ilk marotaba 1897-yili Fransiyaning Parij shahrida o'tkazilgan. Bugungi kunda AQSH, Buyuk Britaniya, Norvegiya, Avstriya, Shvetsiya, Yaponiya, Germaniya, Niderlandiya, Rossiyaning jahonga mashhur muzeylarida Rishton kulolchilik san'ati asarlari saqlanayotgani ham hududga xos amaliy san'at nechog'li ko'hna ekanidan dalolat beradi.

mutaxassis-hunarmand sifatida o'z o'mini topmoqda. Kulolchilikda asosiy xomashyo – tuproq. Kelib chiqishi va tarkibi turlicha bo'lgan tuproqlardan har xil kulolchilik mahsulotlari tayyorlanadi. Loy qancha ko'p pishitilsa, sopolning sifati shuncha yaxshi bo'ladi. Asosiy mehnat quroli – kulollik charxi: usta unda idishlar tayyorlaydi va ularga shakl beradi. Tayyorlangan idishlar quritilib, xumdonda qizdiriladi. Idish turiga qarab xumdondan ham turlicha (katta-kichik) bo'ladi. Sirlanadigan idishlar sirlanganidan so'ng yana bir bor xumdonda qizdiriladi.

Mashhur kulol Bunyod Yunusov va uning shogirdlari ishini kuzatish juda maroqli. Usta soz tuproq va suvni teng miqdorda olib, loyqa tayyorlaydi va elakdan o'tkazadi. Loyqa maxsus qurilmada loy holatiga keltirilib, ichidagi havosi chiqariladi. Loy maxsus matoga o'ralib, uch kun tindiriladi. Tobiga kelgan xomashyo bilan charxda ishlash oson kechadi. Dastgohda yasalgan mahsulot bir kun quritiladi.

Keyingi bosqichda buyumning tag qismi kajkord (kashkord) pichog'ida tekislanadi va kerakli shakl beriladi. Shu tariqa sopol yana quritilib, tayyor mahsulot ko'rinishiga keltirish jarayoni boshlanadi. Kulol yaratgan buyum sifati chiqishida quyosh nuri muhim sanaladi. An'anaviy kulolchilikda ranglar yorqin bo'lishi uchun fon berilishi kerak. Ustalar tilida bu "loyalash" deyiladi. Tog'li hududlardan olingan oq tosh, ya'ni kvars maydalanadi va suyuq loy holiga keltirilib, buyum

yupqa loyalanadi. Kulolchilikning eng muhim jarayoni sirlashdir. Qirqbo'g'im, guloba kabi gilyohlar me'yoriga yetib yashil tusga kirganida uyum qilib yig'ilib, o'sha joyning o'zida yoqiladi. Bu jarayonda gilyohlar tarkibidagi tuzli suvlar shiraga aylanib, qotishma holiga keladi. U yuqori haroratda qizdirilgan pechkaga solinsa, shishasimon modda hosil bo'ladi va idishlar ishqorlanadi, ya'ni sirlab chiqiladi. Sir buyumdagi ranglarni jildor ko'rsatib berishga xizmat qiladi.

Nodirjon Eliboyev kulolchilikda sulolaning munosib davomchilaridan bo'lib, u uchinchi avlod vakili. Bobosi va otasi o'z vaqtida Rishtonda taniqli kulol bo'lgan.

Oilamizdagi uch o'g'il va ikki qiz ham kulolchilik bilan shug'ullanadi. O'n – o'n ikki yoshlarimdan loydan buyumlar yasashga ishqim tushgan, – deydi u. – Oradan o'ttiz yil vaqt o'tib ham o'sha ishtiyoq so'ngani yo'q. Kulolchilik – hayotim mazmuni. Har kuni ko'zimiz yasayotgan buyumda, oyoqlarimiz charxda, ko'llarimiz aylanayotgan loy ustida, fikru xayolimiz esa yangi rejalar bilan band bo'ladi. Oyoq ostida yotgan oddiy tuproq qo'lingizda jarangdor mahsulotga aylanadi, bu juda hayratlanarli!

Usta yaratgan mo'jiza – rangin va takrorlanmas sopol buyumlar dunyoning ko'p joylarida namoyish etilgan. Fransiya, Italiya, Germaniya kabi Yevropa davlatlari, Rossiya va qo'shni mamlakatlardan kelgan sayyohlar usta kulolning ustaxonasida soatlab qolib ketadi. Ba'zan o'z qo'llari

bilan biror buyum yasashga ham urinishadi.

– Rishtonning qizil tuprog'i – mo'jizaviy kuchga ega, uning o'ziga yarasha "shira"si bor, – deydi Tohirjon Haydarov. – Loydan buyum yasash, shakl berish, pishirish bir san'at bo'lsa, unga rang berish, naqsh, gullar solish alohida jarayon. Keyingi yillarda farzandlarim va shogirdlar bilan milliy va Yevropa an'analarini uyg'unlashtirgan holda yangi dizayn va naqsh-gullar yaratish ustida ish olib boryapman.

Rishtonda Tohirjon Haydarovni hamma "Tohir sopol" sifatida taniydi. Bu nom unga ardoqli yozuvchimiz Said Ahmaddan meros. Tohir aka bir muddat "Mushtum" jurnalida rassom bo'lib ishlagan. O'sha yillari sopol idishlarga mashhur ijodkorlarimizning suratlarini chizishga odatlandi. Bugun ham bejirim kulolchilik mahsulotlarida mumtoz yozuvchi, shoirlarimiz, jadidlar qiyofasi aks ettirilmoqda.

O'tgan yili ikkinchi Xalqaro kulolchilik forumida Rishtonga "Dunyo hunarmandlari shahri" maqomi berildi. Saxovatli zamin bag'ridan olingan soz tuproqga mehr va ilhom alangasini uyg'unlashtirib, san'at asari yaratib, odamlar qalbiga ezgulik urug'larini qadadotgan rishtonlik usta kulollar dunyoni hayratlantirishda davom etmoqda.

Botir MADIYOROV
("Xalq so'zi").



Ma'lum qilinishicha, test sinovlarining birinchi kuni – 14-iyulda respublika bo'ylab 62 ming nafardan ziyod abituriyentlar bilimlari sinovdan o'tkazdi. Belgilangan tartib-qoidalariga rioya etmagan 7 nafar abituriyent esa imtihon jarayonidan chetlatildi.

Mutasaddilar abituriyentlarga ruxsatnomada ko'rsatilgan sana, vaqt va manzila qat'iy amal qilish, imtihon hududiga belgilangan vaqtdan kamida bir yarim soat oldin yetib kelish hamda shaxsni tasdiqlovchi hujjatning aslini ko'rsatish zarurligini eslatmoqda.

Ayni kunlarda oliy ta'lim tashkilotlarida kasbiy (ijodiy) imtihonlar ham izchil davom etmoqda. Jumladan, 15-iyul kuni bunday imtihonlar 18 ta oliy ta'lim tashkilotida belgilangan tartib asosida tashkil qilindi. Ularning borishini "imtihon.edu.uz" platformasi orqali onlayn kuzatish imkoniyati ham yaratilgan.

Oliy ta'limga qabul jarayoni – bu shunchaki imtihon emas, balki mamlakatimiz intellektual salohiyatini yuksaltirish, bilimi va raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashga qaratilgan muhim davlat siyosatining amaldagi ifodasidir. Bugun sinovdan o'tayotgan har bir yosh ertangi Yangi O'zbekiston taraqqiyotiga munosib hissa qo'shadigan yetuk mutaxassis bo'lish sari dadil qadam qo'ymoqda.

"Xalq so'zi".

Munosabat

ADABIYOT MUZEYI FAOLIYATINI KO'RKAM BINODA DAVOM ETTIRADI

Ijtimoiy tarmoqlarda Alisher Navoiy nomidagi davlat adabiyot muzeyi faoliyati bilan bog'liq turli muhokamalar avj olgan bir paytda O'zbekiston Fanlar akademiyasi rasmiy munosabat bilan chiqdi.

Unda ta'kidlanishicha, muzeyda amalga oshirilayotgan ishlar muassasa faoliyatini to'xtatish yoki uning noyob boyliklarini boshqa joyga olib ketishga emas, balki bebaho madaniy merosni yanada ishonchli muhofaza qilish, raqamlashtirish va zamonaviy talablar asosida saqlashga qaratilgan.

Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 20-maydagi farmoyishiga muvofiq, Yangi Toshkent shahrida Alisher Navoiy nomidagi davlat adabiyot muzeyi uchun barpo etilayotgan yangi bino foydalanishga topshirilgunga qadar muzey fondidagi nodir qo'lyozma va toshbosma manbalar hamda "O'zbekiston yozuvchilari va shoirlari arxivi" fondi O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazida, boshqa eksponatlar esa Fanlar akademiyasining Antropologiya institutida vaqtincha saqlanadi.

Rasmiy ma'lumotga ko'ra, hozirgi vaqtda muzey tomoshabinlar va tadqiqotchilar uchun vaqtincha yopilgan bo'lsa-da, muassasa xodimlari o'z xizmat vazifalarini belgilangan tartibda davom ettirmoqda. Shu kunga qadar 1 491 ta toshbosma manba, 439 ta papkadagi foto-nusxa, 145 ta papkadagi plyonka va negativlar, shuningdek, 1 million 416 ming 512 ta hujjatni o'z ichiga olgan "O'zbekiston yozuvchilari va shoirlari arxivi" fondi birlamchi xatlovdan o'tkazilgan. Muzey eksponatlarini xatlovdan o'tkazish ishlari izchil davom ettirmoqda.

Fanlar akademiyasi barcha jarayon belgilangan tartib va qonunchilik talabari asosida, mas'ul mutaxassislar ishtirokida amalga oshirilayotganini qayd etib, jamoatchilikni ijtimoiy tarmoqlarda tarqalayotgan tasdiqlanmagan ma'lumotlarga emas, rasmiy axborot manbalariga tayanishga chaqirdi.

Shu tariqa Alisher Navoiy nomidagi davlat adabiyot muzeyi o'zining bebaho xazinasini zamonaviy talablar asosida asrab-avaylagan holda, Yangi Toshkent shahrida qurilayotgan yangi binoda faoliyatini davom ettiradi.

"Xalq so'zi".

YANGILANGAN "VATANPARVAR" BOG'I

Samarqand shahrida "Vatanparvar" bog'i foydalanishga topshirildi.

Qulaylik

"Farovon Turkman City" mas'uliyati cheklangan jamiyati tomonidan yangidan barpo qilingan zamonaviy dam olish maskanida 30 dan ortiq attraktsion va o'yin qurilmalari o'rnatilib, qulay piyodalar yo'laklari, ko'rkam pavilyon hamda yashil hududlar tashkil etildi. Maskanda bir vaqtning o'zida mingdan ziyod aholi va sayyohlarga yuqori sifati

servis xizmati ko'rsatish imkoniyati mavjud. Majmuaning diqqatga sazovor obyektlari qatoridan sun'iy ko'l, uning ustida uzunligi 85 metr va balandligi 25 metr bo'lgan oynali ko'prikl, kichik hayvonot bog'i, avtodrom hamda karting maydoni o'rin olgan. Mahobatli charxpalakning balandligi 92 metr bo'lib, ushbu qurilma 49 ta shina, xavfsiz va qulay kabinadan iborat, uning keng va hashamatli kutish zali ham mavjud.

OILAVIY ZO'RAVONLIKNING AYANCHLI YAKUNI

Oilaviy, maishiy zo'ravonliklar jamiyatda eng ko'p uchraydigan muammolardan biri hisoblanadi. Qashqadaryo viloyatidagi jinoyat ishlari bo'yicha sudlar tomonidan o'tgan yili oilaviy zo'ravonlikka oid 90 ga yaqin ish ko'rilgan. Ularning aksariyatida ayollar jabrdiyda bo'lishgan. O'nga yaqin holatlarda er-xotin, qaynona-kelin yoki turmush o'rtog'i o'rtasidagi o'zaro nizo, janjallarning oqibati ayolning o'z joniga qasd qilishga olib kelgan.

Taassuf

Qamashilik E'zoza Botirova (ism-familiyalari o'zgartirilgan) qo'shni mahallalik Habib ismli yigit bilan bir-biriga ko'ngil qo'yib, turmush qurishga ahdu paymon qilishgan edi. Ikki oila ulug'lari ham yoshlarning bu qarorini qo'llab-quvvatlashdi. 2023-yil 9-oktabr kuni ularning nikoh to'yi bo'lib o'tdi. To'ydan bir necha kun o'tib, qaynotasi ishlash uchun xorijga jo'nab ketdi. Turmush o'rtog'i ham pul topish ilinjida Toshkent shahriga o'tlandi. Uydagi qaynonasi, 14 yoshli qaynsinglisi va o'zi qoldi. Shundan so'ng qaynonaning fikru xayolini kelinni o'z yo'rig'iga yurgizish vasvasasi egallab oldi. U E'zoza telefonidan foydalanishni taqiqladi, qachon uyquga yotishiyu qachon uyg'onishi, hatto yeydigan ovqatining miqdorini ham belgilab berdi. Uydagi barcha yumushlar homilador kelinning zimmasiga yuklandi. E'zoza qaynonasi aytgan ishlarni bekamu ko'st bajarar, lekin "o'tirsa o'poq, tursa so'poq" bo'lib qolavardi. Natijada qaynona-kelin o'rtasida urush-janjall avj ola boshladi. Kelin kunora kaltaklanib, uydan quvilar, ota-

onasi va mahalla faollari esa unga pand-nasihat qilib, yana qaynonasining ixtiyoriga topshirib ketishardi. Bu orada E'zoza o'g'il farzandli bo'ldi. Ammo oiladagi g'avg'olar, qaynonasining zug'umlari iskanjasida onalik quvonchi ham tatimadi. Ham jismoniy, ham ruhiy tomondan juda charchadi. U keyingi hayoti qanday bo'lishini o'yab siqilar, o'z oldida biror-bir yorug' yo'l ko'rmasdi. O'sha kuni ham qaynonasi kaltakladi, boz ustiga uydan chiqarib yuborib, qaytib darvozadan kiritmadi. Butun tanasi kaltak zarbidan momataloq bo'lgan kelin chaqaloq'ini opichlab, zor yig'lagancha yana ota-onasining uyiga bordi.

2025-yilning 28-iyul sanasi. Toshkentdan uyga qaytgan Habib onasining qarshiligiga qaramay, E'zozani qaytarib olib ketdi. O'g'lining bu ishi qaynonaning battar g'azabini ko'zg'atdi. U E'zozaqa nisbatan zug'umlarini, ruhiy bosimni yanada oshirdi. Bu xo'rliklar jon-jonidan o'tib borayotgani, ortiq bunday yashashga toqat qilmagligini bilgan kelin ayni tush vaqtida hammaning uyquga kirishini kutib, so'ng o'zi o'g'ilxona tomon yo'l oldi...

E'zoza Botirovanning o'limi yuzasidan tergov-surishtiruv harakatlari olib borildi.

Sud-tibbiy ekspertiza xulosalari olindi. Natijada 1976-yilda tug'ilgan fuqaro Gulnora Choriyeva o'z kelini E'zoza Botirovanning qadr-qimmatini toptab, unga jismoniy va ruhiy bosim o'tkazib, o'z joniga qasd qilish darajasiga olib kelganligi holati to'liq isbotini topdi. Jinoyat ishlari bo'yicha Qamashi tumani sudining ochiq sud majlisida mazkur qilmish ko'rib chiqilib, Gulnora Choriyevaga nisbatan 5-yil muddatga ozodlikdan mahrum etish jazosi tayinlandi.

Yoki Chiroqchi tumanining Ko'ktosh mahallasida yashovchi Sanjar Qobilov ham shu mahallalik Shahzoda Xoliqova bilan turmush qurgan. Ammo to'ydan bir yil o'tmay o'zi ishlash uchun xorijga jo'nab ketdi. Uydan olis ketgan Sanjarining fikru xayolini turmush o'rtog'iga nisbatan turli shubha-gumonlar egallay boshlaydi. U har kuni o'nlab marotaba Shahzodaga videoqo'ng'iroq qilib, qayerdaligini tekshirar, agar biror safar ayoli qo'ng'irog'iga javob bera olmay qolsa yoki kech javob bersa, unyi qo'pol so'zlar bilan haqoratlab, ayollik sh'o'ni, insoniy qadr-qimmatini toptardi. Shahzoda turmush o'rtog'ining shubha-gumonlar vasvasasiga tushib qolganini bilir, shu bois imkon qadar uning talablariga bo'syunib, vaziyatni yumshatishga harakat qildi. Yillar davomida o'zi xorijda bo'lgan turmush o'rtog'ining o'rsinsiz talablari va haqoratlarga ko'nib yashadi. Nihoyat, besh yil deganda Sanjar uyga qaytdi. Shahzoda endi turmush o'rtog'ining shubha-gumonlari arib, hayotlari

izga tushib ketishini kutgandi. Ammo unday bo'lmadi. Sanjar Shahzodani o'zi xorijda ekanligida begona erkaklar bilan yurganlikda ayblab, unga ruhiy bosim o'tkazishda davom etaverdi. Oxiri bu xo'rlilarga chiday olmagani ayol ota uyiga ketdi. Oradan bir necha kun o'tgach, ikki oila kattalarining aralashuvi bilan er-xotin o'zaro yarashtirilib, Shahzoda uyiga qaytdi. Bu paytda Sanjar ishlash uchun Toshkent shahriga ketayotgan edi. Ijaraga kvartira olib, Shahzoda va olti yoshli farzandini ham birga olib ketdi.

Poytaxtda ham odatiy janjallar davom etaverdi. Bir safar Sanjar Shahzodani urib, uydan chiqarib yubordi. Voyaga yetmagan farzandini esa unga bermasdan, o'zi bilan olib qoldi. Katta shaharda pulsiz, boshpanasiz qolgan ayol nima qilarni bilmasdan, shu yerda yashovchi qarindoshlaridan birining telefon raqamini topib, unga qo'ng'iroq qildi. Va bir necha kun davomida qarindoshlarining uyida yashab yurdi. Ammo Sanjar uni bu yerda ham tinch qo'ymedi. Shahzoda uning

Ha, bugun ajrimlarning oldini olish, ularning sonini kamaytirish, nizoli oilalarni yarashtirish bilan shug'ullanadigan qancha-qancha ishchi guruhlar, komissiyalar, mas'ul xodimlar bor. Ular muammoning oqibati bilan kurashayotgandir, lekin uni keltirib qicharayotgan sabablar, bunga zamin yaratgan shart-sharoitlari bilan qiziqyaptimi? Agar ota-onaga, qarindosh-yurug', mahalla-yo'ya, ishchi guruhlar yuqoridagi holatlarga befarq bo'lmaganida, muammoning ich-ichiga kirib, uni hal etish choralarni ko'rishganida, qaynona-kelin, er-xotin o'rtasidagi nizolar bunchalik avj olib ketmagan, ikkita yosh umr erta xazonga aylanmagan bo'lardi.

Shahzoda Xoliqovanning o'z joniga qasd etish holati bo'yicha surishtiruv-tergov harakatlari olib borildi. Tegishli sud-tibbiy ekspertizalari o'tkazildi, sud-psixologik xulosalari olindi. Turmush o'rtog'i bilan telefon so'zlashuvlari, yozishmalar o'rganilib, psixologik tahlildan o'tkazildi. Barcha ashyoviy dalillar mahrumaning o'z joniga qasd qilishi turmush o'rtog'i tomonidan unga nisbatan o'tkazilgan jismoniy va ruhiy tazyiq natijasida sodir bo'lganini ko'rsatib turardi. Jinoyat ishlari bo'yicha Chiroqchi tumani sudining ochiq sud majlisida Sanjar Qobilov tomonidan sodir etilgan mazkur qilmish o'ziga chiqilib, unga nisbatan 7-yil muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlandi.

Shahzoda Xoliqovanning o'z joniga qasd etish holati bo'yicha surishtiruv-tergov harakatlari olib borildi. Tegishli sud-tibbiy ekspertizalari o'tkazildi, sud-psixologik xulosalari olindi. Turmush o'rtog'i bilan telefon so'zlashuvlari, yozishmalar o'rganilib, psixologik tahlildan o'tkazildi. Barcha ashyoviy dalillar mahrumaning o'z joniga qasd qilishi turmush o'rtog'i tomonidan unga nisbatan o'tkazilgan jismoniy va ruhiy tazyiq natijasida sodir bo'lganini ko'rsatib turardi. Jinoyat ishlari bo'yicha Chiroqchi tumani sudining ochiq sud majlisida Sanjar Qobilov tomonidan sodir etilgan mazkur qilmish o'ziga chiqilib, unga nisbatan 7-yil muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlandi.

Shahzoda Xoliqovanning o'z joniga qasd etish holati bo'yicha surishtiruv-tergov harakatlari olib borildi. Tegishli sud-tibbiy ekspertizalari o'tkazildi, sud-psixologik xulosalari olindi. Turmush o'rtog'i bilan telefon so'zlashuvlari, yozishmalar o'rganilib, psixologik tahlildan o'tkazildi. Barcha ashyoviy dalillar mahrumaning o'z joniga qasd qilishi turmush o'rtog'i tomonidan unga nisbatan o'tkazilgan jismoniy va ruhiy tazyiq natijasida sodir bo'lganini ko'rsatib turardi. Jinoyat ishlari bo'yicha Chiroqchi tumani sudining ochiq sud majlisida Sanjar Qobilov tomonidan sodir etilgan mazkur qilmish o'ziga chiqilib, unga nisbatan 7-yil muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlandi.

Jahongir BOYMURODOV
("Xalq so'zi").

Mamlakatimizda 2026/2027 o'quv yili uchun o'qishni ko'chirish, qayta tiklash va ta'lim shaklini o'zgartirish bo'yicha arizalar topshirish jarayoni rasman start oldi.

Xalq so'zi Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasi Kengashi
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Senati Kengashi

Bosh muharrir O'tkir RAHMATOV

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi – 229. Buyurtma G-1242. 25 499 nusxada bosildi. Hajmi – 2 taqob. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; Kotibxona 71-259-74-53;
e'lonlar 71-259-74-55.



Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va mullifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida teriladi hamda operator M. Begumratov tomonidan sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul.
Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.
Navbachi muharrir F. Bozorov.
Musahhah Sh. Mashrabboyev.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni – 21.15 Topshirildi – 23.35 **1 2 3 4 5 6**